



JINOYATCHILIK STATISTIKASI VA HUQUQIY TARTIBOT: HUDUDIY FARQLAR MISOLIDA KOMPLEKS TAHLIL

Shonqakov Rashid No'kisbayevich

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining bosh ekspert-
kriminalisti*

Telefon: 913777887

Elektron pochta: Shonrash@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida 2010–2024 yillarda ro'yxatga olingan jinoyatlar statistikasi asosida huquqiy tartibotning hududiy farqlari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda jinoyatchilik statistikasi huquqiy boshqaruv samaradorligini baholashning muhim empirik vositasi sifatida qaraladi. Hududlar kesimida jinoyatchilik darajasining farqlanishi ijtimoiy-iqtisodiy, institutsional va huquqiy omillar bilan bog'liqligi asoslab berilgan. Statistik va huquqiy tahlil natijalari jinoyatchilik ko'rsatkichlarining huquqiy tartibotni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi hamda hududiy differensial yondashuv zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik statistikasi, huquqiy tartibot, hududiy farqlar, huquqiy siyosat, huquqiy xavfsizlik, O'zbekiston

СТАТИСТИКА ПРЕСТУПНОСТИ И ПРАВОПОРЯДОК: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ РАЗЛИЧИЙ

Шонкаков Рашид Нокисбаевич

главный эксперт-криминалист МВД Республики Каракалпакстан

913777887

Shonrash@mail.ru



Аннотация: В статье на основе статистики зарегистрированных преступлений в Республике Узбекистан за 2010–2024 годы проведён комплексный анализ территориальных различий правопорядка. Преступность рассматривается как важный эмпирический показатель эффективности правового управления. Обоснована взаимосвязь между уровнем преступности, социально-экономическими и институционально-правовыми факторами. Полученные результаты подтверждают стратегическую значимость статистики преступности для формирования адресной правовой политики и обеспечения устойчивости правопорядка на региональном уровне.

Ключевые слова: статистика преступности, правопорядок, территориальные различия, правовая политика, правовая безопасность, Республика Узбекистан

CRIME STATISTICS AND LEGAL ORDER: A COMPREHENSIVE ANALYSIS BASED ON TERRITORIAL DIFFERENCES

Shonkakov Rashid Nokisbayevich

Chief Forensic Expert of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Karakalpakstan

Phone: 913777887

Email: Shonrash@mail.ru

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of territorial differences in legal order based on crime statistics registered in the Republic of Uzbekistan between 2010 and 2024. Crime statistics are examined as a key empirical indicator of the effectiveness of legal governance. The study substantiates the relationship between crime levels and socio-economic, institutional, and legal factors. The findings highlight the strategic importance of crime statistics in shaping targeted legal policies and ensuring regional legal stability.

Keywords: crime statistics, legal order, territorial differences, legal policy, legal security, Uzbekistan



Kirish. Zamonaviy huquqiy davlat barpo etish jarayonida jinoyatchilik darajasini nazorat qilish va huquqiy tartibotni ta'minlash masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. Jinoyatchilik nafaqat ijtimoiy xavfli hodisa, balki jamiyatda huquqiy institutlar samaradorligi, davlat boshqaruvi sifati va fuqarolarning huquqiy madaniyat darajasini aks ettiruvchi muhim indikator hisoblanadi. Shu sababli jinoyatchilik statistikasi huquqiy tahlilning asosiy empirik manbalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi va huquqiy siyosatni shakllantirishda muhim axborot bazasini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda huquqiy islohotlarning chuqurlashuvi, ochiq statistik ma'lumotlar bazalarining joriy etilishi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining institutsional takomillashuvi jinoyatchilikni hududiy kesimda kompleks o'rganish imkonini bermoqda. Hududlar o'rtasida jinoyatchilik darajasining sezilarli farqlanishi esa huquqiy tartibotning bir xil emasligini, ayrim hududlarda huquqiy risklar yuqoriroq ekanini ko'rsatadi. Bu holat jinoyatchilikka faqat kriminologik emas, balki umumiy yurisprudensiya va fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan ham yondashishni taqozo etadi[3].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida 2010–2024 yillarda ro'yxatga olingan jinoyatlar statistikasi asosida huquqiy tartibotning hududiy farqlarini aniqlash, ularning shakllanish omillarini tahlil qilish hamda statistik ko'rsatkichlar va huquqiy boshqaruv o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda ochib berishdan iborat. Tadqiqot doirasida jinoyatchilik statistikasi huquqiy tartibot samaradorligini baholash vositasi sifatida qaraladi va hududiy farqlarning huquqiy oqibatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi[2].

Metodologiya: Tadqiqotning empirik bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan, Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga asoslangan rasmiy jinoyatchilik statistikasi tanlandi. Mazkur ma'lumotlar 2010–2024 yillarni qamrab olib, respublika, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida ro'yxatga olingan jinoyatlar sonini o'z ichiga oladi



Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslangan bo'lib, unda bir nechta ilmiy usullar uyg'unlashtirildi. Xususan, dinamik tahlil usuli yordamida jinoyatchilik ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha o'zgarishi o'rganildi, qiyosiy tahlil orqali hududlar o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Statistik tahlil natijalari huquqiy interpretatsiya usuli orqali normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy tartibot konsepsiyalari va huquqni muhofaza qilish amaliyoti bilan bog'lab talqin qilindi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida jinoyatchilik statistikasi huquqiy tartibotni ta'minlash mexanizmlarining tarkibiy elementi sifatida ko'rib chiqildi[4].

Metodik jihatdan tadqiqotda mutlaq ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ularning hududiy taqsimoti va vaqt bo'yicha tebranishlariga alohida e'tibor qaratildi. Chunki jinoyatlar sonining oshishi yoki kamayishi har doim ham bevosita huquqiy tartibot darajasining yomonlashuvi yoki yaxshilanishini anglatmaydi. Shu sababli statistik natijalarni baholashda ularning shakllanish sharoitlari, ijtimoiy-iqtisodiy fon va institutsional omillar inobatga olindi[5].

Natijalar. O'tkazilgan statistik tahlil natijalari O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilik darajasi vaqt va hududlar kesimida bir xil emasligini ko'rsatdi. 2010–2024 yillar oralig'ida respublika bo'yicha ro'yxatga olingan jinoyatlar sonida davriy pasayish va o'sish holatlari kuzatilgan. Xususan, 2017–2019 yillarda jinoyatchilik darajasi sezilarli darajada kamaygan bo'lsa, 2021 yildan boshlab deyarli barcha hududlarda jinoyatlar sonining keskin o'sishi qayd etilgan. Bu holat jinoyatchilikka ta'sir etuvchi omillarning ko'p qirrali ekanini va huquqiy tartibotning dinamik xususiyatga egaligini ko'rsatadi.

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida ayrim hududlar bo'yicha ro'yxatga olingan jinoyatlar soni (2010, 2017 va 2024 yy.)[1]

Hudud	2010 yil	2017 yil	2024 yil
Toshkent shahri	21061	14030	32106
Toshkent viloyati	9725	8320	14702
Farg'ona viloyati	8985	8126	14289



Samarqand viloyati	7739	7691	9402
Qoraqalpog‘iston R.	3182	2861	4673

Hududiy tahlil natijalari jinoyatchilik darajasi eng yuqori bo‘lgan hududlar asosan aholisi zich va iqtisodiy faolligi yuqori bo‘lgan mintaqalarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi. Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg‘ona va Samarqand viloyatlari jinoyatlar soni bo‘yicha yetakchi hududlar qatoriga kiradi. Aksincha, aholisi nisbatan kam va iqtisodiy yuklama past bo‘lgan hududlarda jinoyatchilik ko‘rsatkichlari past darajada saqlanib qolgan[6].

2017 yilda deyarli barcha hududlarda jinoyatchilik darajasi pasaygan bo‘lsa-da, 2024 yilga kelib ko‘rsatkichlarning keskin oshgani kuzatiladi. Ayniqsa, Toshkent shahrida jinoyatlar sonining 2010 yilga nisbatan ham sezilarli darajada oshgani huquqiy tartibotni ta‘minlash mexanizmlarining hududiy xususiyatlarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida jinoyatchilik ko‘rsatkichlarini chuqurlashtirilgan tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, jinoyatlar sonining mutlaq hajmi bilan bir qatorda ularning o‘sish sur‘atlari ham hududiy jihatdan sezilarli darajada farqlanadi. Ayrim viloyatlarda jinoyatchilikning o‘sishi nisbatan barqaror bo‘lgan bo‘lsa, boshqa hududlarda qisqa vaqt oralig‘ida keskin sakrashlar kuzatilgan. Bu holat hududiy huquqiy tartibotning barqarorligi bir xil emasligini va mahalliy omillarning jinoyatchilik dinamikasiga kuchli ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

2-jadval.

2024 yilda O‘zbekiston hududlarida ro‘yxatga olingan jinoyatlar soni va ularning respublika bo‘yicha ulushi[1]

Hudud	Jinoyatlar soni	Respublika bo‘yicha ulushi, %
Toshkent shahri	32106	24,3
Toshkent viloyati	14702	11,1
Farg‘ona viloyati	14289	10,8
Samarqand viloyati	9402	7,1



Qashqadaryo viloyati	7841	5,9
Qoraqalpog‘iston R.	4673	3,5
Sirdaryo viloyati	3295	2,5

Xususan, Farg‘ona vodiysi hududlarida jinoyatlar sonining o‘shishi respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lib, bu hududlarda aholi zichligi, mehnat migratsiyasi va iqtisodiy faollikning yuqoriligi bilan izohlanadi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida esa jinoyatchilik darajasi nafaqat yuqori, balki o‘shish sur‘ati ham keskin bo‘lib, bu hududlarda huquqiy tartibotni ta‘minlashning an‘anaviy usullari yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ayni paytda, Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida jinoyatchilik ko‘rsatkichlari nisbatan past bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda barqaror o‘shish tendensiyasi shakllanmoqda[7].

Jinoyatlarning qariyb chorak qismi Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu holat huquqiy tartibotni hududiy differensial yondashuv asosida ta‘minlash zaruratini yaqqol namoyon etadi. Jinoyatchilikning yuqori ulushi qayd etilgan hududlarda faqat repressiv choralar emas, balki fuqarolik-huquqiy, ijtimoiy va profilaktik mexanizmlarni kompleks qo‘llash talab etiladi. Statistik natijalar jinoyatchilik darajasining hududiy konsentratsiyasi huquqiy risklarni ham hududiy jihatdan kuchaytirayotganini ko‘rsatadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, jinoyatchilik statistikasi huquqiy tartibotni baholashda passiv axborot manbasi emas, balki faol boshqaruv instrumenti sifatida qaralishi lozim. Hududiy tafovutlar huquqiy siyosatning bir xil emasligini, balki manzilli bo‘lishi zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi[8].

Mulohaza. Olingan natijalar jinoyatchilik statistikasi va huquqiy tartibot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik murakkab va ko‘p omilli ekanini tasdiqlaydi. Jinoyatlar sonining ko‘pligi avtomatik ravishda huquqiy tartibotning izdan chiqqanini anglatmaydi, aksincha, ayrim hollarda huquqbuzarliklarni aniqlash va ro‘yxatga olish tizimining samarali ishlayotganidan dalolat berishi mumkin. Shu sababli statistik ko‘rsatkichlarni talqin qilishda ularni huquqiy institutlar faoliyati, huquqni



muhofaza qiluvchi organlar vakolatlari va jamiyatdagi huquqiy ong darajasi bilan bog'lab tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy farqlar nuqtayi nazaridan qaralganda, jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan mintaqalarda huquqiy tartibotning asosiy muammolari sifatida urbanizatsiya, ijtimoiy tabaqalanish va migratsiya jarayonlari bilan bog'liq xavf omillari ajralib turadi. Ayniqsa, yirik shaharlarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarning murakkablashuvi, mulkiy nizolar sonining ortishi va shartnomaviy munosabatlarning kengayishi jinoyatchilik bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq huquqiy kolliziyalarni yuzaga keltiradi. Bu holat jinoyatchilikni faqat jinoiy-huquqiy choralalar bilan emas, balki fuqarolik huquqi vositalari orqali ham tartibga solish zarurligini ko'rsatadi[9].

Mazkur tadqiqot natijalari jinoyatchilik statistikasi huquqiy tartibotni prognozlash vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlar asosida hududlarda huquqiy xavf zonalarini aniqlash, profilaktik choralarni oldindan rejalashtirish va huquqiy resurslarni optimal taqsimlash imkoniyati paydo bo'ladi. Shu ma'noda, jinoyatchilik statistikasi huquqiy boshqaruvning reaktiv emas, balki proaktiv modeliga o'tish uchun zarur empirik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, natijalar jinoyatchilik va fuqarolarning huquqiy faolligi o'rtasida bilvosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ayrim hududlarda jinoyatlar sonining oshishi fuqarolarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish faolligi kuchaygani bilan ham izohlanadi. Bu holat huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasining oshishi fonida jinoyatchilik statistikasi ko'rsatkichlarining o'sishi mumkinligini anglatadi. Shu sababli statistik o'sishni faqat salbiy hodisa sifatida baholash ilmiy jihatdan to'liq yondashuv bo'la olmaydi[10].

Xulosa. O'tkazilgan kompleks tahlil shuni ko'rsatdiki, jinoyatchilik statistikasi O'zbekiston Respublikasida huquqiy tartibotni baholash va takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan indikator hisoblanadi. 2010–2024 yillar davomida hududlar kesimida jinoyatchilik



darajasining sezilarli farqlanishi huquqiy tartibotning makoniy jihatdan bir xil emasligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, Toshkent shahri va iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda jinoyatchilik darajasining yuqoriligi huquqiy boshqaruvning hududiy differensial yondashuvini talab qiladi.

Maqola natijalari jinoyatchilik statistikasi huquqiy siyosatni shakllantirishda yordamchi emas, balki strategik vosita sifatida qaralishi lozimligini asoslab berdi. Statistik ma'lumotlar asosida huquqiy risklarni hududiy darajada aniqlash, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini optimallashtirish va profilaktik choralarni manzilli amalga oshirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, jinoyatchilik statistikasi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashda ham muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyatchilik statistikasi va huquqiy tartibot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hududiy farqlar misolida o'rganish huquqiy tadqiqotlarning yangi bosqichiga yo'l ochadi. Mazkur yondashuv jinoyatchilikni faqat jinoiy-huquqiy hodisa sifatida emas, balki kompleks ijtimoiy-huquqiy jarayon sifatida anglash imkonini beradi hamda doktorantura darajasidagi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam metodologik va empirik asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan jinoyatlar statistikasi (2010–2024 yy.). – Toshkent, rasmiy ma'lumotlar bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Jinoyatchilik holati va huquqbuzarliklar bo'yicha statistik hisobotlar. – Toshkent.
3. Qodirov A.A. Huquqiy tartibot va jinoyatchilikka qarshi kurashning nazariy asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018.
4. Saidov A.X. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Adolat, 2019.
5. Rahmonov O.R. Jinoyatchilik statistikasi va uning kriminologik tahlildagi o'rni. – Toshkent, 2020.



6. Xudoyberganov B.B. Huquqiy xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlash masalalari. – Toshkent: Fan, 2021.
7. Ismoilov J.S. Hududiy jinoyatchilik va ijtimoiy omillar o'zaro bog'liqligi. // "Huquq va jamiyat" ilmiy jurnali, 2022, №3.
8. Abdullayev M.A. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirishning institutsional jihatlari. – Toshkent, 2020.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. Huquqiy siyosat va jinoyatchilik profilaktikasi masalalari. – Toshkent, 2021.
10. Yusupov K.T. Fuqarolarning huquqiy madaniyati va jinoyatchilik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik. // "Yuridik fanlar axborotnomasi", 2023, №2.